



RUS TILINI INTERFAOL METODLAR ORQALI O'RGANISH

Raxmatova Qizlarxon Ulug'bekovna

*Guliston Davlat Universiteti Rus tili va adabiyoti kafedrasida
stajyor o'qituvchisi*

Annotatsiya: Rus tilini o'rganishda BBB chizmasi, Zigzag strategiyasidan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Dars sifatini yaxshilaydi. Bundan tashqari qo'shiqlar va kinolar orqali rus tilini yanada mustahkamlash mumkin. "Tarjimon" o'yini orqali o'quvchilar o'z fikrlarini rus tilida ifodalashi mumkin.

Abstract: The use of the BBB drawing, the Zigzag strategy increases efficiency in learning the Russian language. Improves the quality of the lesson. In addition, Russian language can be further strengthened through songs and movies. Through the "Translator" game, students can express their thoughts in Russian.

Аннотация: Использование рисунка BBB, стратегии «Зигзаг» повышает эффективность изучения русского языка. Улучшает качество урока. Кроме того, русский язык можно дополнительно укреплять с помощью песен и фильмов. Через игру «Переводчик» учащиеся могут выражать свои мысли на русском языке.

Kalit so'zlar: BBB chizmasi, ZigZag strategiyasi, "Tarjimon" o'yini, kino, qo'shiq, mantiqiy zanjir.

Keywords: BBB diagram, ZigZag strategy, "Translator" game, movie, song, logical chain.

Ключевые слова: диаграмма BBB, стратегия ZigZag, игра «Переводчик», фильм, песня, логическая цепочка.

Rus tili yurtimizda ikkinchi til sifatida o'rgatiladigan til bo'lganligi sababli maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari rus tilini mukammal darajada o'rganishlari lozim. Bunda pedagoglarimizning pedagogik mahoratlari va ularning dars davomida foydalanayotgan metod va usullari muhim o'rin tutadi. O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari ushbu metodlardan umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan deyarli barcha fanlarni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lib, agar ushbu metodlar to'g'ri qo'llansa albatta yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun o'qituvchining o'zi yuqoridagi metodlarni qo'llash haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. Erkin yozish, Klaster, Aqliy hujum, B-B-B chizmasi, Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi, Blits-so'rov kabi



metodlar o'quvchilarni tez o'ziga jalb qiladi, ularning darsdagi faolligini oshiradi. Rus tilida darslarida ushbu metodlardan o'quvchilarning yoshiga moslagan holda dastlab sodda shaklda keyinroq murakkab shaklda foydalanish kerak. Boshlang'ich sinflarda ham yuqori sinflarda ham ushbu metodlarni qo'llash orqali tashkil etilgan darslar samarali bo'ladi.

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari:

- ✓ -Erkin yozish.
- ✓ -Klaster.
- ✓ -Aqliy hujum.
- ✓ -B-B-B chizmasi.
- ✓ -Chalkashtirilgan mantiqiy
- ✓ -zanjirlar ketma-ketligi.
- ✓ -Blits-so'rov.
- ✓ Yangi materialni anglash metodlari:
- ✓ -Insert chizmasi.
- ✓ -B-B-B chizmasi.
- ✓ -O'qitish bo'yicha
- ✓ -Qo'llanma.
- ✓ -Bir-biriga o'rgatish.
- ✓ -Bir-biridan so'rash.
- ✓ -Ikki qismli kundaliklar.
- ✓ -Eng asosiy tushunchalar

O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar:

- -Eng asosiy tushunchalar,
- -Takrorlash.
- -T-chizma.
- -Toifalash jadvali.
- -Nima uchun? chizmasi.
- -"Qan.day?" diagrammasi.
- -Venn diagrammasi.
- -Besh minutlik esse.
- -O'n minutlik esse.

1. "Tarjimon" o'yini. Ushbu o'yinning bir nechta variantlari mavjud.

Xorijiy so'zlarni kim tezda topib, ruscha so'z bilan almashtiradi?

- a) Tekshiruv davomida ko'plab nuqsonlar aniqlandi.
- b) U xotiralar yozadi.



- c) Sizning dalillaringiz ishonchli.
- d) Hamma ishtiyoq bilan ishladi.
- e) Biz darvozabonimiz bilan faxrlanamiz.

2. Bu orqali o'quvchilar lug'atlarni tezroq topishga harakat qiladi. Tezkorlik mahorati oshadi.

«Zigzag» strategiyasi metodini ko'rib chiqiamiz: Sinf o'quvchilari 7 ta guruhga bo'linadilar va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi.

3. Rus tilini o'rganishda musiqalardan foydalanish mumkin. Bu orqali so'zlarni tezda o'rganish mumkin va til o'rganish qiziqarli kechadi. Kino orqali o'rganish esa so'zlarni to'g'ri ishlatishni o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali, Nuraliyeva Lola Aminovna, **RUS TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH**, 32-b
2. **Международный научный журнал, №10(100), часть 2**
«Научный импульс» Мая, 2023, Jalilova Yoqutxon Shuxratjon qizi, **RUS TILI FANIDA INTERFAOL VA DIDAKTIK O'YINLAR BILAN ISHLASH USULLARI**, 1278-b
3. **Ustozlar uchun**, Raximova Gulbahorxon Bahodirovna, **RUS TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI**, 82-b